

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR
PAGES

JOCAA

МАДАНИЈАТ ВА САЊАТ

Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 3

MAY | 2023

КУЛТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиёв Иқбол

Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор

Ходжаметова Гулчира

Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов Фахриддин

Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз Турабович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур

Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида

Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон

Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло

Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

YO‘LDASHEV Abbos*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali
talabasi**Ilmiy rahbar: АБАТБАЕВА Рано Алламбергеновна**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7971412>*

USTOZIM NESIPBAY ALEKEEV TURSINBAEVICHNING IJODIGA BIR NAZAR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qoraqalpoq musiqasiga o‘zining sermahsul mehnati bilan hissa qo‘shgan sozanda, pedagog Nesipbay Alekeev hayoti va ijodi, ish faoliyati haqida ma’lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari Qoraqalpog‘istonda yoshlar xalq cholg‘ulari orkestrini tashkil qilishi, filarmoniyada ish faoliyati shogirtlari, turli xalq kuylarini, bastakorlarning asarlarini notalashtirib xalq cholg‘ulari orkestri va ansambli uchun moslashtirgani haqida so‘z etiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa, baqsi, orkestr, filarmoniya, rubob, konsert, partitura, klavir, melodiya, konservatoriya, san’at, professor.

ЮЛДАШЕВ Аббас*Нукусский филиал Государственной консерватории Узбекистана
студент**Научный руководитель: АББАЕВА Рано Алламбергеновна*

МОЙ НАСТАВНИК НЕСИПБАЙ АЛЕКЕЕВ ТУРСИНБАЕВИЧ ВЗГЛЯД НА ТВОРЧЕСТВО

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены сведения о жизни и творчестве музыканта, педагога Несипбая Алеева, внесшего свой плодотворный вклад в каракалпакскую музыку. Кроме того, сообщается, что молодежь Каракалпакстана организовала оркестр народных инструментов, студенты филармонии, но тировали различные народные мелодии и произведения композиторов и адаптировали их для оркестра и ансамбля народных инструментов.

Ключевые слова: музыка, баччи, оркестр, филармония, рубоб, концерт, партитура, фортепиано, мелодия, консерватория, искусство, профессор.

YUDASHEV Abbas

*Nukus branch of the State Conservatory of Uzbekistan
student**Scientific leader: ABATBAEVA Rano Allambergenovna*

MY TEACHER NESIPBAY ALEKEEV TURSINBAEVICH A GLIMPSE INTO HIS WORK

ANNOTATION

This article presents information about the life and work of the musician, teacher Nesipbay Alekeyev, who made his fruitful contribution to Karakalpak music. In addition, it is reported that the youth of Karakalpakstan organized an orchestra of folk instruments, students of the philharmonic, notated various folk melodies and works of composers and adapted them for the orchestra and ensemble of folk instruments.

Key words: music, bacci, orchestra, philharmonic, rubob, concerto, score, piano, melody, conservatory, art, professor.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san‘at turidir. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va kadrlashga o‘rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma‘naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va g‘oyaviy-ahloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida barcha sohalar qatorida musiqa san‘atini rivojlantirish borasida ham o‘ziga xos ishlar amalga oshirilmoqda. Mana shunday jadal rivojlanish davrda yashab ijod qilgan vatan fidoiylaridan biri O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filiali xalq cholg‘ulari bo‘limi qashqar rubobi sinfi o‘qituvchisi, mohir sozanda, dirijor, Alekeev Nesipbay Tursinbaevich 1980-yilning 22-mart oyida tug‘ilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi miqyosida qashqar rubobi sozi bo‘yicha O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasini tugatgandan so‘ng mutaxassislar ichida birinchilardan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

N. Alekeevning musiqa san‘atiga bo‘lgan qiziqishi bolalik chog‘laridan boshlanadi. Bolalik chog‘larida N. Alekeev bilimga chanqoqligi ziyrakligi bilan boshqa bollardan ajralib turardi. Keyinchalik ota-onasi 2-sonli bolalar musiqa va san‘at maktabiga o‘qishga berishadi va o‘quvchilar orasida faol qatnashib turli musobaqalarda ishtirok etib keldi.

N. Alekeev musiqa maktabini imtiyozli ravishda tugatib 1995-yili Japaq Shamuratov nomidagi musiqa bilim yurtiga o‘qishga kiradi. U yerda N. Alekev musiqa bilim yurti direktori xalq cholg‘ulari bo‘limi o‘qituvchisi Maqset Kamalov sinfida qashqar rubobi mutaxassisligi bo‘yicha saboq oladi. Musiqa bilim yurtida o‘qib yurgan paytlari Maqset Kamalovning shogirdi bo‘lmish hozirgi kunda Nukus iqtisodlashtirilgan madaniyat va san‘at maktabida xalq cholg‘ulari bo‘limi o‘qituvchi faoliyatida ishlab kelayotgan ustoz Bazarbay Erniyazovdan ham ta‘lim olgan, N. Alekeev o‘zining talabchanligi, ziyrakligi va mohir sozanda bo‘lganligi tufayli musiqa bilim yurtida o‘qib yurgan paytlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradio komiteti qoshidagi xalq cholg‘ulari orkestriga sozanda sifatida ishga taklif qilinadi va o‘z ish faoliyatini boshlaydi. Musiqa bilim yurtini tugatadigan yili butun O‘zbekiston Respublikasi miqyosida o‘tkaziladigan “Yosh ijrochilar” festivalida “diplomat” sovrinini olishga muvassar bo‘ladi va musiqa bilim yurtini yaxshi baholarga o‘qib bitkazadi.

N. Alekeev musiqa bilim yurtini tamomlagandan so‘ng 2001-yili O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasiga o‘qishga topshiradi va xalq cholg‘ulari bo‘limi hozirgi kunda qashqar rubobi sinfi o‘qituvchisi xalq chog‘ulari kafedrasida bo‘lim boshlig‘i Professor Bahodir Mirfayozov sinfida tahsil olib boshlaydi.

O‘qib yurgan paytlari N. Alekeev faqatgina o‘z mutaxassisligiga bog‘lanib qolmasdan dirijyorlik sirlarini ham o‘rganadi. Dirijyorlik darsligidan Botir Rasulov sinifida tahsil oladi va 2004 yili Konservatoriyada ta‘lim olayotgan talabalar orasida otkazilgan “dirijyorlik” festivalida faxrli 1-o‘rinni olishga muvassar bo‘ladi. O‘qib yurgan paytlarida nufuzli orkestr ansambllarda ishlaydi va bir nechta ko‘rik tanlov va festivallarga qatnashadi.

N. Alekeev o‘qish faoliyatini 2006-yilda tamomlab ona yurtiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahriga qaytib keladi. Keyinchalik o‘zi o‘qib tahsil olgan Japaq Shamuratov nomidagi musiqa bilim yurtida ish faoliyatini boshlaydi. 2007-yilda N. Alekeevni Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradio komiteti qoshidagi xalq cholg‘ulari orkestriga sozanda sifatida ishga taklif qilinadi. Xalq cholg‘ulari orkestrida ishlab yurgan paytlarida dirijyorlik fani ustozlari Botir Rasulovdan olgan bilimlari tufayli orkestr uchun ko‘pgina xalq musiqalarini notalashtirib, orkestr uchun moslashtirib keladi.

Musiqa bilim yurtida ish faoliyati davomida N. Alekeev ko‘plab shogirdlar tayyorlaydi: Sardor Bazarbaev, Sadullaev Og‘abek, Sotimov Sardor, Uzaqbergenov Ernazar, Raximov Oybek, Tursinbaev Karamatdin Begijonov Nursulton, Xo‘jamatov Mardonbek Jumladan o‘zim ham shu insonda o‘qib tahsil oldim va shogirtlari qatoridan joy olganligimdan fahrlanam. Ustozdan Ko‘pgina bilim va ko‘nikmalarni o‘rgandim ustozni dars o‘tish metodikalari o‘zgacha edi. Ustoz har dars o‘tgan paytlari aytardiki “Abbos san‘at bu igna bilan quduq qazishdek gap erinchoqlik qilishga bo‘lmaydi” deb qayta-qayta ta‘kidlab o‘tardi [1, B.3]. Mana endi yillar o‘tib ustozim to‘g‘ri gapni aytganlariga amin bo‘layapman.



2018-yilga kelib Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi talantli yoshlardan tarkib topgan “Yoshlar xalq cholg‘ulari orkestri” o‘z ish faoliyatini boshlaydi. Bu orkestrni tashkil topishiga sababchi bo‘lgan inson N. Alekeev edi. Yoshlar xalq cholg‘ulari orkestri 2018-yili noyabr oyidan boshlab talantli yoshlarni o‘ziga chorlab, konsert dasturlariga o‘z tayyorgarliklarini boshlaydi. 2019-yil aprel oyida Nukus shahri 22-sonli bolalar musiqa va san‘at maktabi qoshida tashkil qilinib yoshlar xalq cholg‘ulari kamer orkestri atamasiga ega bo‘ladi va o‘zining ochilish marosimida butun xalqimizga rang-barang musiqiy asarlardan tarkib topgan konsert dasturini in‘om etadi.

Konsert oxirida Respublikamizning kata-katta madaniyat hodimlari, professor o'qituvchilar sahna oldiga chiqib orkestr uchun o'z fikrlarini bildirishadi, keyingi ishlarida orkestrga omadlar tilab yaxshi-yaxshi niyatlarni bildirib o'tadilar [2, B.6].

Shu kundan boshlab N. Alekeev orkestr yoshlari uchun o'z bilim va ko'nikmalarini o'rgata boshlaydi. Nukus shahri 22-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi direktori Tajimuratov Ahmet Xojaxmetovichning qo'llab quvatlashlari tufayli Respublikamizning deyarli barcha tumanlarida (Taxtakopir, Qaraozek, Shimbay, Kegeyli, Nukus tumani, Xojaeli mexribonlik uyi, Taqiyatosh, Elliqqala, Amudaryo hamda shahrimizning barcha musiqa maktablarida konsert dasturlari bilan o'z xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.



Aytib o'tadigan bo'lsak 2020-yil 17-yanvar kuni Yoshlar xalq cholg'ulari kamer orkestri Nukus iqtisoslashtirilgan madaniyat va san'at maktabida o'zining konsert dasturini o'tkazdi.

Dastur ro'yxatida turli xil xalqlar asarlari va ko'plab moxirona asarlar joy olgan edi. Orkestr jamoasi bilan konsert dasturida iqtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari ham qatnashdi jumladan Allambergenov Jasur qashqar rubobida, Ahmedov Dilmurod doira asbobida, o'zim ham afg'on rubobida orkestr jamoasi bilan ijro qildim.



Yoshlar xalq cholg'ulari kamer orkestri Qoraqalpog'iston xalqining ko'plab musiqa maktablarida, madaniyat uylarida konsert dasturlarini o'tkazib keldi. 2020-yil noyabr oyiga kelib 22-sonli bolalar musiqa va san'at maktabida konsert dasturini o'tkazdi [2].

Orkestr jamoasi bilan konsert dasturlarini o'tkazishdan maqsad asosan kelajak yoshlari uchun o'rnak bo'lish, musiqa san'atiga yanada qiziqtirishdir.

Ushbu tashkil qilingan “Yoshlar orkestr”ida Qoraqalpochka asarlar ham joy olgan. Bulardan “Min tumen” qoraqalpoq xalq kuyi, “Qalqali” qoraqalpoq xalq kuyi, “Aral qizlari” B.Ismoilov, “Suyukli yori” U.Xo‘janazarova so‘zi X.Turdiqulov musiqasi, “Elim bar” I.Qurbanbaev so‘zi R.Sultanov musiqasi, “Qaraqalpag‘istan bul” T.Qobulov so‘zi A.Mollabaev musiqasi, “Gul yanlidi” musiqasi N.Muxammeddinov, “Kelib ket” Ajiniyoz so‘zi S.Palwanov musiqasi, “Balalardin tilegi” U.Abdullaeva musiqasi “Ko‘zlerim” Ajiniyaz so‘zi A.Sultanov musiqasi, “Qoraqalpoq suyitasi” A.Sultanov Musiqasi, “Vatan” G.Nurlepesova so‘zi U.Abdullaeva musiqasi, “Seni oylayman” R.Duysemuratova so‘zi Z.Lepesov musiqasi, “Kewil nalasi” G.Utemuratov musiqasi, “Zamanlas” A.Bekbergenova so‘zi A.Tajimuratov musiqasi, “Nawriz vals” Sh.Paxratdinov musiqasi, “Bozataw” qaralpoq xalq kuyi, “Qara jorg‘a” qoraqalpoq xalq musiqasi [3, B.12].

“Qara dali” qoraqalpoq xalq musiqasi, “Xalqim” I.Qurbanbaev so‘zi K.Abdullaev musiqasi, “Xalqim bor mening” N.Muxametdinov musiqasi, “Dayi qiz” Q.Zaretdinov musiqasi, “Tumaris” I.Yusupov so‘zi Q.Zaretdinov musiqasi, “Mug‘alimim ustazim” U.Abdullaeva musiqasi, “Aydinlar” A.Tadjimuratov so‘zi M.Jeymuratov musiqasi, “sening ko‘zlering” S.Embergenov so‘zi Q.Zaretdinov musiqasi, “Qo‘biz nolasi” N.Muxametdinov musiqasi.

Bundan tashqari N.Alekeev qardosh xalqlar musiqalarini ham e‘tibordan chetda qoldirmasdan, o‘zbek musiqalarini ham orkestr uchun moslartirib ishlagan va konsert dasturlarida ko‘plab tinglovchilar qalbidan joy olgan. Jumladan “Qo‘shiq va raqs” S.Kalanov N.Sobinov musiqasi, “Konsert” S. Rustamov musiqasi, “Dutor bayoti” E.Shukurullaev musiqasi, “Uzbekcha skertso” F.Nazarov musiqasi, “Raqs” A.Xalmuxammedov musiqasi, “Koncert fantaziyasi” A.Usmonov musiqasi, “Koncert piesasi” O.Abdullaeva musiqasi, “Uvertyura” A.Mansurov musiqasi, “Xamroz bilan” Y.Usmonova, “Oxista” M.Roziyev F.Alimov musiqasi, “Atirgullar B.Turaev musiqasi, “Seni sog‘indim” Matiyakupva so‘zi M.Do‘shbaev musiqasi, “Xechkinga bermayman” U.Azimov so‘zi D.Amanullaeva musiqasi, “Uvertyura gulnara” F.Nazarov musiqasi, “Koncert rapsodiyasi” A.Babaev, “Sayl” A.Qorabaev musiqasi, “Mangi namalar” A.Qurbanov musiqasi, “Vals” S.Raxmatov musiqasi, “Koncert uvertyurasi” M.Maxmudov musiqasi, “Andijon po‘lkasi” O‘zbek xalq kuyi, “Fasli baxor” M.Toiro‘v musiqasi, “Navo va bazm” A.Musa musiqasi, “Yangra doira” A.Mansurov musiqasi, “Ko‘ngil guldastasi” M.Ergashov musiqasi, “Eskeraniy” S.Rustamov musiqasi, “Sog‘indim” A.Fayz so‘zi va musiqasi, “O‘rik gullaganda” X.Olimjon so‘zi M.Leviev musiqasi, “Signal” T.Jalilov musiqasi.

Tayorgarlik paytlarida N.Alekeev orkestri jamoasiga shunday deb aytardiki, har bir musiqachi inson faqat o‘z millati asarlariga bog‘lanib qolmasdan boshqa millat asarlarini ya‘ni qardosh xalqlar asarlaridan ham ijro qilishi kerak deb ta‘kidlardi. Orkestr uchun moslashtirib kelgan qardosh xalqlar asarlari jumladan; “Lezginka” A.Xachaturiyan musiqasi, “Javrnok” V.Gnutova musiqasi, “Ulibka” V.Shayniskiy musiqasi, “U qizni ko‘rdim” F.Registana so‘zi A.Babaev musiqasi, “Popuriy” A.Zatsepin musiqasi, “Qilichbozar jangi” A.Xachaturiyan musiqasi, “Qo‘shiq va raqs” S.Gadjibekov musiqasi, “To‘fon” B.Murtazaviy musiqasi, “Koncert № 3” G.Xanmamedov musiqasi, “Chorgoh rapsodiyasi” X.Rzaev musiqasi, “Kuzgi o‘yin” E.Usenov musiqasi, “Sanda de kalmaz” R.Riza so‘zi T.Kuliev musiqasi, “Jo‘sh” X.Sakhiy musiqasi, “Balbirawn” Qurmang‘azi musiqasi, “Eksprompt” A.Aratuniyan musiqasi, “Mangu xarakat” S.Aleskerov musiqasi va bir qancha asarlar.

N.Alekeevni ijodida orkestr uchun moslashtirgan asarlar ro‘yxatida mohirona asarlar ham joy olgan. Bulardan “Antrakt” P.Sarasate musiqasi “Ispan gitarasi” V.Granozio musiqasi, “Fantaziya №4” P.Sarasate musiqasi, “Libertango” A.Pyatsollo, “Elbimbo” O.Abdullaeva, “Uvertyura” K.Morgan “Palladio” K.Jenkins, “Menuat” P.Mauriyat, “Xazl” I.S.Bax, “Yoz mavsumi” J.Xisaishi, “Vilgelm tel” J.Rossini, “Jok” V.Abetisov, “Rektaym” S.Joplin, “Sherburg soyabonlari” M.Legran, “Take five” P.dezmont “Sirtaki” Grek xalq kuyi, “Bambelleo” G.Kigs va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi vazirlar maxkamasining 2021-yil 5-aprel kungi 186-sonli qarori asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasida O‘zbekiston davlat Konservatoriyasining Nukus filiali tashkil etildi.

Bu ta‘lim dargohi Qoraqalpog‘iston yoshlari uchun hamma imkoniyatlar eshigini ochdi. Yosh avlodning musiqa san‘atida professional ta‘lim olish, sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lish kabi maqsadlariga erishish yo‘lidagi muhim qaror hisoblanadi. N. Alekeev 2021-yil Sentabr oyidan boshlab shu dargohga ishga qabul qilinadi. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi xalq cholg‘ulari bo‘limi magistranti bo‘lishga ham muayassar bo‘ladi. O‘z ish faoliyati davomida N. Alekeev faqatgina xalq cholg‘ulari o‘qituvchisi bo‘libgina qolmasdan xalq cholg‘ulari orkestriga dirijyorlik qiladi. Xalq cholg‘ulari orkestriga dirijyorlik masuliyati yuklatilganidan keyin N. Alekeev orkestr uchun ko‘plab o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, rus xalq musiqalarini notalashtirib orkestr uchun moslashtiradi. Jumladan qoraqalpoq kompazitorlari Najimiddin Muxammeddinov, Marqabay Jeymuratov, Qurbonboy Zaretdinovlarning musiqiy asarlarini xalq cholg‘ulari orkestriga moslashtiradi. O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filiali oliygohlar ichida eng kenjatoyi bo‘lishiga qaramasdan ish faoliyatini boshlaganidanoq ko‘pgina konsertlarga va davlat tadbirlariga o‘zining talaba yoshlardan tarkib topgan xalq cholg‘ulari orkestri ansambllari bilan qatnasha boshladi. N. Alekeev boshchiligidagi orkestri jamoasi konservatoriyamiz tadbirlarida va Qoraqalpog‘iston televideniya bo‘lib o‘tadigan “soz sowbet” kechalarida faol qatnashib kelmoqda.

Biz talabalarga ham shunday kunlar nasib qildiki Prezidentimizning biz yoshlarga qaratayotgan e‘tibori va imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Biz bu imkoniyatlardan to‘laqonli foydalana bilishimiz kerak. 2021-yil 6-sentabr kundan boshlab O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filialiga 47 ta talaba qabul qilindi [5, B.52] va birinchi qaldirg‘ochlari bo‘lishga muayassar bo‘ldik. Men mutaxassislik fanidan N. Alekeev sinfida tahsil olib kelayotgandim. Afsuski taqdir taqazosi bilan Ustozim N. Alekeev og‘ir xastalikka chalinib 2023-yil 26-mart kuni olamdan o‘tadi. Biz shogirtlar ustoz bergan ilm va nasixatlari har doim yodimizda saqlab ustoz shogird an‘analarini davom ettirgan holda kelajak avlodga musiqiy meros qilib qoldirishga harakat qilamiz.

Alekeev bundan tashqari qilgan mehnatlaridan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filialida xalq cholg‘ulari ansamblini tashkil qilib, ularga qoraqalpoq, o‘zbek turli xil qardosh xalqlarning xalq kuylarini cholg‘ulashrtirib biz yoshlar uchun namuna yaratib ketdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

N. Alekeev ish faoliyati davomida ko‘plab xalq artistlari, xizmat ko‘rsatgan artistlar va xalqimiz nazaridagi etiborga sazovor bo‘lgan san‘atkorlarni ashulalarini orkestr uchun moslashtirib ko‘plab konsert dasturlari va televideniya sahnalariga olib chiqdi. Jumladan Sulton Qo‘sekeevni konsert dasturini aytib o‘tsak bo‘ladi. Ashulalaridan “Megzer” X. Turdiqulov musiqasi, “Esingdeme” S. Qo‘sekeev musiqasi, “Ovildagi sol bir qiz” K. Tanabergenov so‘zi S. Qo‘sekeev musiqasi, “Ellerim bardi” Ajiniyaz so‘zi G‘. Demesinov musiqasi, “Qizil ko‘ylek” I. Yusupov so‘zi Q. Xolilov musiqasi, “Sanda de kalmaz” R. Riza so‘zi T. Quliev musiqasi. Sultan Qosekeevning mualliflik asarlarini notaga olib kitob holiga olib bosmaga tayorlayotgan edi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Alekeev N. Musiqa san'atida ijrochilik mahoratini takomillashtirishning dolzarb masalalari Nokis-2022. B.6.
2. Kasbdoshlari va zamondosh do'stlaridan yozib olingan ma'lumotlarga tayangan holda kiritildi.
3. АБАТБАЕВА, Рано. "КОМПОЗИТОР НАЖИМАДДИН МУХАММЕДДИНОВ ИЖОДИДА ТАРИХИЙ СИЙМОЛАР." Journal of Culture and Art 1.1 (2023): 60-66.
4. Абатбаева, Рано Алламбергеновна. "ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МАШХУР БАСТАТОР Н. МУХАММЕДДИНОВНИНГ ЎРНИ." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 648-653.
5. Allambergenovna, Abatbaeva Rano. "THE MANIFESTATION OF EUROPEAN AND NATIONAL TRADITIONS IN THE OPERA "GULAYIM"." International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 2.2 (2022): 185-187.
6. GAYIROVA, Moxigul, and Rano АБАТБАЕВА. "QORAQALPOQ АКАДЕМИК ҚО 'SHIQCHILIK SAN'ATIDA VAZARBAY NADIROVNING TUTGAN O 'RNI." Journal of Culture and Art 1.1 (2023): 84-88.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz